

AXBOROTLASHGAN JAMIYAT VA UNING ISTIQBOLLARI

*Namangan davlat pedagogika instituti
Texnologik ta'lif yo'naliishi
1-bosqich talabasi Arabboyeva Nozima*

Annostatsiya: Ushbu maqolada axborotlashgan jamiyat tushunchasi, tarixiy rivojlanishi, ijobiy va salbiy ta'sirlari, kelajakdagi istiqbollari haqida batafsil ma'lumot beradi. Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ning keng tarqalishi, insonlar hayotining turli sohalariga chuqur ta'sir ko'rsatganligi ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: axborotlashgan jamiyat, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), ta'lif va bilim, raqamli texnologiya, axborot xavfsizligi, internet,

XXI asr – globallashuv davri, texnika asridir.

Axborotlashgan jamiyatning rivojlanishi insoniyat tarixidagi eng katta o'zgarishlardan biri bo'lib, bizning hayotimizning barcha jabhalariga ta'sir ko'rsatmoqda.

Axborotlashgan jamiyat bu axborot va kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) yordamida axborotga keng va tezkor kirish imkoniyatiga ega bo'lgan jamiyat.

Axborotlashgan jamiyatni ijtimoiy fenomen tarzda tushuntirib berish masalalari D.Bell, A.Toffler, M.Klastels, U.Rostou, P.Draker, J.Gelbreyt, F.Uebstar, I.Masuda kabi olimlarning asarlarida mufassil bayon qilingan.

„Axborotlashgan jamiyat“ atamasi dastlab Yaponiyada vujudga kelgan. Yapon faylasuf olimi Y.Xayashi 1969 – yilda Yaponiya hukumatiga „ Yaponiya axborotlashgan jamiyat bardamligi siyosatiga chizgilar ” tadqiqotlarini taqdim etadi. 1971 – yildan boshlab mazkur tushuncha ilmiy jamoatchilik tomonidan keng qo'llanila boshladi. Demak, axborotlashgan jamiyat tushunchasini birinchi bo'lib fanga Tokio texnologik universitetining professori Y.Xayashi kiritgan.

Uning fikricha, moddiy mahsulot emas, axborotlashuv mahsuloti jamiyatning shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi kuchiga aylanadi.

Bugungi globallashuv va raqamli rivojlanish davrida dunyo „ Axborotlashgan jamiyat ” sari qadam tashlamoqda. Axborot texnologiyalari insonlar hayotining barcha sohalariga, jumladan, ta'lif, sog'liqni saqlash, iqtisodiyot va hukumat faoliyatiga chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu jamiyatda axborot almashinuvi va ishlab chiqarish jarayonlari kundalik hayotning ajralmas qismiga aylangan.

Axborotlashgan jamiyatning ijobiy ta'sirlari bilan birga, axborot xavfsizligi va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish kabi muammolar ham paydo bo'ldi. Bu muammolar bizni axborot texnologiyalaridan foydalanishda extiyotkorlik bilan

yondashishga va shaxsiy ma'lumotlarimizni himoya qilish uchun choralar ko'risshtga majbur qildi.

Axborot – kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) jadal rivojlanishi insonlarning yashash tarzini, ish faoliyatini, ta'lim olish uslublarini tubdan o'zgartirmoqda. Bu jarayon natijasida axborot almashinushi tezlashib, ijtimoiy aloqalar kengaymoqda, davlat boshqaruvi esa ochiqlik va shaffoflik sari yo'naltirilmoqda.

Axborot texnologiyalari ta'lim sohasida katta o'zgarishlar keltirib chiqardi. Onlayn kurslar, elektron kutubxonalar va interaktiv ta'lim vositalari bilim olish jarayonini osonlashtirdi va ta'lim imkoniyatlarini kengaytirdi. O'quvchilar endi dunyoning istalgan burchagidagi bilim manbalaridan foydalanishlari mumkun. Masalan, onlayn baholash tizimlari, o'quvchilarning bilim darajasini kuzatish va interaktiv muloqot vositalari pedagogik jarayonni yuksak darajaga olib chiqadi.

Axborot jamiyati iqtisodiy asosi asosan sanoat yoki agrar jamiyatlarga qarama – qarshi bo'lisi mumkun. Axborot jamiyatining dastgohlari stanoklar yoki pulluklar emas, balki kompyuterlar va telekommunikatsiyalardir.

Faylasuf olima L.A. Muhammedjanovaning fikricha : - „Bugun dunyo chuqur o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Iqtisodiy o'zaro globallashuv va kuchayib borayotgan o'zaro bog'liqlik, kuchli va hamma joyda mavjud aholi migratsiyasi. Ijtimoiy tuzilmadagi o'zgarishlar chuqurlashib, jamiyatlar tez rivojlanmoqda. Bunday holatlar sodir bo'lganda murakkab o'zgarishlar, millatlararo nizolarga olib kelishi mumkun, dunyoning turli burchaklarida to'qnashuvlar hali ham rivojlanmoqda. Jamiyat borlig'idagi – milliy, etnik, millatlararo munosabatlar, muammolar, vazifalar ularning yechimi, o'tmishda ishlatilgan eski vositalar va usullar bilan hal etilmay qoldi. Hayot kun taartibiga yangi muammolarni qo'ydi – milliy masalaga yondashish va eski usullardan qat'iy voz kechish.

Axborot texnologiyalari va kommunikatsiya sohasidagi taraqqiyot barchaning hayot tarzini o'zgartirmoqda: qanday ishlash va biznes qilish, farzandlarga qanday ta'lim berish, o'qib – o'rganish va tadqiqot qilish, qanday zavq olish – bularning barchasi zamonaviy axborot texnologiyalari ta'sirida o'zgarmoqda. Axborot jamiyati nafaqat odamlarning o'zaro munosabatlariga ta'sir qilmoqda, balki an'anaviy, tashkiliy tuzilmalarni yanada moslashuvchan va markazlashtirilmagan bo'lishini talab qilmoqda.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi jamiyatning ijtimoiy tuzilmasiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Kommunikatsiya jarayoni tezlashib, insonlar o'rtasidagi axborot almashinushi yangi bosqichga chiqdi. Ijtimoiy tarmoqlar va onlayn platformalar insonlarning kundalik hayotida muhim o'rinnegalladi. Biroq, ijtimoiy tarmoqlarning haddan tashqari rivojlanishi ba'zi muammolarni ham keltirib chiqarmoqda.

Masalan, soxta axborot (feyk axboroti) tarqalishi, ijtimoiy manipulyatsiya va shaxsiy ma'lumotlarning xavfsizligi dolzarb masalaga aylandi. Odamlar, ko'pincha axborotni tekshirmasdan qabul qilishlari natijasida noto'g'ri xulosa chiqarishlari yoki yolg'on ma'lumotlarga ishonishlari mumkun. Bu esa, jamiyatda axborot madaniyatini oshirish zaruratinii kkeltirib chiqaradi.

Raqamli kommunikatsiya madaniyati ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Axborot texnologiyalaridan foydalanishda etik me'yorlarga rioya qilish, onlayn muloqot madaniyatini shakllantirish va kibermadaniyatni rivojlantirish zamonaviy jamiyatning ajralmas qismiga aylanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. I.A. Karimov (2008) Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch Toshkent: Ma'naviyat
2. To'xtaboyeva. N (2018) Axborotlashgan jamiyat mohiyati, shakllanish bosqichlari va istiqbollari. Toshkent: Iqtisod-Moliya
3. Qodirov. B. (2019) Raqamli iqtisodiyot : nazariya va amaliyot. Toshkent: „Ilm Ziyo”
4. www.ziyonet.uz
5. Shakarov. SH (2020) Axborot madaniyati va axborot xavfsizligi. Toshkent : Innovatsiya.